



UDK: 81'42:37.015.3

Nozimaxon XOLMATOVA,  
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti  
E-mail: xolmatovanozimaxon7@gmail.com

### POSITIVE FACE-THREATENING ACTS (PFTAS) IN UZBEK EDUCATIONAL DISCOURSE

Annotation

This study is dedicated to the pragmatic analysis of positive face-threatening acts in Uzbek educational discourse. In classroom interactions, teachers and students employ speech acts such as criticism, disapproval, warnings, and insults, which may threaten the interlocutor's positive face. The main objective of the study is to identify the types of positive face-threatening acts occurring in Uzbek educational settings and to analyze their pragmatic functions in classroom communication. The findings contribute to a deeper understanding of the pragmalinguistic features of Uzbek educational discourse and shed light on the role of face management and politeness strategies in teacher-student interaction.

**Keywords:** educational discourse, pragmalinguistics, social face, positive face, face-threatening acts.

### ДЕЙСТВИЯ, УГРОЖАЮЩИЕ ПОЗИТИВНОМУ ЛИЦУ В УЗБЕКСКОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация

Данное исследование посвящено прагматическому анализу актов, действия, угрожающих позитивному лицу в узбекском образовательном дискурсе. В процессе взаимодействия в классе учителя и учащиеся используют речевые акты, такие как критика, неодобрение, предупреждения и оскорбления, которые могут угрожать позитивному лицу собеседника. Основная цель исследования — определить виды актов, угрожающих позитивному лицу, в узбекской образовательной среде и проанализировать их прагматические функции в процессе классного общения. Результаты способствуют более глубокому пониманию прагматических особенностей узбекского образовательного дискурса и освещают роль управления лицом и стратегий вежливости во взаимодействии учителя и ученика.

**Ключевые слова:** образовательный дискурс, прагматическая лингвистика, социальное лицо, позитивное лицо, действия, угрожающие лицу.

### O'ZBEK TA'LIMIY DISKURSIDA IJOBIIY YUZGA TAHDID SOLUVCHI HARAKATLAR

Annotatsiya

Mazkur tadqiqot o'zbek ta'limiy diskursida ijobiy yuzga tahdid soluvchi harakatlarni pragmatik nuqtai nazardan o'rganishga bag'ishlangan. Sinfdagi muloqot jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan tanqid, ma'qullamaslik, ogohlantirish va haqorat kabi nutqiy harakatlar qo'llanilib, ular suhbatdoshning ijobiy "yuz"iga tahdid solishi mumkin. Tadqiqotning asosiy maqsadi o'zbek ta'limiy muhitida uchraydigan ijobiy yuzga tahdid soluvchi harakat turlarini aniqlash hamda ularning sinfdagi muloqot jarayonidagi pragmatik funksiyalarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot natijalari o'zbek ta'limiy diskursining pragmalingvistik xususiyatlarini chuqurroq anglashga hamda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotda yuzni boshqarish va xushmuomalalik strategiyalarining rolini yoritishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ta'limiy diskurs, pragmalingvistik, ijtimoiy yuz, ijobiy yuz, yuzga tahdid soluvchi harakatlar

**Kirish.** Ta'limiy diskurs hozirgi kunda zamonaviy tilshunoslikning diskurs tahlili yo'nalishlarida biri hisoblanadi. Ta'limiy diskursda o'qituvchi va o'quvchi va o'quvchilarning o'zaro muloqot jarayonini o'rganish muhim hisoblanadi. Sh. Bobojonovanning fikriga ko'ra, ta'limiy diskursning xususiyatlarini aniqlash uchun o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan manba matning maqsadi, ishtirokchilari, xronotoposlari va turi/janri, nutqning og'zaki qismi hisobga olinishi kerak. Agar nutq vaziyatga singdirilgan matn bo'lsa, ta'limiy nutq ta'lim jarayoni va uning ichidagi o'zaro ta'sir nutqidir [1]. Ta'limiy diskursdagi nutq vaziyatini o'rganish va tahlil qilish muhim hisoblanadi. O'zbek ta'limiy diskursida o'qituvchi tomonidan qo'llanilgan ijobiy yuzga tahdid soluvchi harakatlarni pragmalingvistik tahlil qilish ta'lim diskursining pragmatik jihatlarni ochib berishga xizmat qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Tilshunoslikda Face (ijtimoiy yuz) tushunchasi P.Braun va S.Levinson tomonidan keng yotirib berilgan. P.Braun va S.Levinson Face (ijtimoiy yuz) tushunchasi E.Goffman tomonidan ilgari surilgan "face" tushunchasiga asoslangan. Olimlarning fikriga ko'ra face (ijtimoiy yuz) bu inson hissiy jihatdan bog'langan ijtimoiy

qadr-qimmat bo'lib, u yo'qotilishi, saqlanishi yoki kuchaytirilishi mumkin va nutq jarayonida unga doimo e'tibor berish kerak. P.Braun va S. Levinson face (ijtimoiy yuz) ni ikki turga bo'lishgan. Bular Negative Face (salbiy yuz) va Positive face (ijobiy yuz)lardir.

Negative face (salbiy yuz) – muloqot jarayonida so'zlovchilarning o'z harakatlari boshqalar tomonidan to'sqinlik qilinmasligi yoki cheklanmasligi istagidir.

Positive face (ijobiy yuz) – har bir insonning o'z istaklari kamida ayrim boshqa insonlar uchun maqbul yoki qadrli bo'lishini xohlash istagidir.

P.Braun va S. Levinson Face (ijtimoiy yuz) va uning turlariga tarifi bergandan so'ng, Face Threatening Acts (Yuzga tahdid soluvchi harakatlar) ni ham o'z nazariyalarida keltirishgan. Ularning fikriga ko'ra, Face Threatening Acts (Yuzga tahdid soluvchi harakatlar) ham o'z navbatida ikki turga bo'linadi. Bular Positive Face Threatening Acts (Ijobiy yuzga tahdid soluvchi harakatlar) va Negative Face Threatening Acts (Salbiy yuzga tahdid soluvchi harakatlar)dir [2]. B.Lambertning fikriga ko'ra, Yuzga tahdid soluvchi harakatlar (FTAs) muloqot jarayonida kimnidir uyaltirishi, tahqirlashi

yoki uning "ijtimoiy yuz"ini yo'qotishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda suhbatdoshing o'zini hurmat qilishiga zarar yetkazadi va natijada suhbatdoshlar o'rtasida konflikt paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin [3]. A. Andriyani va boshqa olimlarning fikriga ko'ra, Yuzga tahdid soluvchi harakatlar (FTAs) atamasi muloqot jarayonida insonning "ijtimoiy yuzi"ga shuningdek, uning fikrlariga, holatlariga va nutqiga zarar yetkazishi muki bo'lgan har qanday xatti-harakatni ifodalaydi [4]. O'zbek olimasi M. Nurmatova ham o'zining "Ingliz va o'zbek tillarida ijtimoiy yuz (face) hodisasini voqealantiruvchi vositalarning lingvopragmatik tadqiqi" nomli dissertatsiyasida Ijobiy yuzga tahdid soluvchi harakatlarni ingliz va o'zbek tilidagi materiallar asosida tahlil qilgan. Dissertatsiyada ikki tildagi tinglovchi va so'zlovchining ijtimoiy yuziga putur yetkazuvchi omillarga ajratilgan va va bu omillar ham o'z navbatida ijobiy va salbiy yuzga putur yetkazuvchi vositalarga bo'lib tahlilga tortilgan [5]. Ta'limiy diskursda ham Yuzga tahdid soluvchi harakatlar ko'plab olimlar tomonidan tahlil qilingan. LR. Aporboning fikriga ko'ra, ta'lim jarayonida o'qituvchining o'quvchilarga o'rnatilgan muqarrar holat sifatida qaraladi [6]. I.J. Chen ta'lim jarayonida o'qituvchilar tomonidan qo'llanilgan yuzga tahdid soluvchi harakatlar va bu harakatlarga o'quvchilarning munosabati va fikrlarini o'rgangan [7].

**Tadqiqot metodologiyasi.** P. Brown va S. Levinson ga ko'ra, Positive face (ijobiy yuz) ga tahdid qiluvchi nutq aktlari shunday nutq harakatlari, ular (potensial ravishda) so'zlovchi tinglovchining his-tuyg'ulari, istaklari yoki ehtiyojlariga befarq ekanligini bildiradi. Ya'ni muhim jihatlardan birida so'zlovchi tinglovchining istaklarini qo'llab-quvvatlamasligini yoki ularni ma'qullamasligini ko'rsatadi.

Ta'lim diskursida Face Threatening Acts (Yuzga tahdid soluvchi harakatlar) sinfdagi muloqot jarayonida ham o'qituvchilar, ham o'quvchilar tomonidan qo'llanilishi mumkin. Bunday nutq aktlari o'quv jarayonida turli kommunikativ vaziyatlarda yuzga keladi va ko'pincha intizomni ta'minlash, baholash yoki tanqid bildirish jarayonida namoyon bo'ladi. Positive face (ijobiy yuz) ga tahdid qiluvchi nutq aktlari qatoriga haqorat, ma'qullamaslik yoki norozilik bildirish, tanqid, yomon xabar yetkazish, tahdid, hamkorlik qilmaslik hamda ochiq salbiy hissiyotlarni ifodalash kiradi. Quyida Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asarida ta'limiy kontekstda o'qituvchilar va maktab direktori tomonidan qo'llangan Positive Face-Threatening Acts (Ijobiy yuzga tahdid soluvchi harakatlar) ga oid misollar keltiriladi va tahlil qilinadi [8].

#### Tahlil va natijalar

##### Haqorat

E. Gold va D. McIntyre larning fikriga ko'ra, haqorat bu haqoratli harakat yoki so'z sifatida ta'riflanadi va tinglovchilarning ya'ni o'quvchilarning Ijobiy yuz (Positive face)ga zarar yetkazish maqsadida aytiladi [9].

##### 1-dialog

Muloqot jarayoni: Algebra darsida o'qituvchi Hoshimjondan savol so'radi:

"Aytasanmi, yo'qmi?", deb so'radi yana o'qituvchimiz.

- Aytaman, domlajon, albatta aytaman.

- Ayt, axir bo'lmasam.

- Mana hozir tilimning uchida turibdi.

- Tilingning uchi qursin seni, o'tir, - deb yubordi o'qituvchimiz.

Ushbu berilgan dialogda Qobilov o'quvchi Hoshimjonning berilgan savolga javob bera olmaganligi sababli "tilingni uchi qursin" degan ibora orqali uni haqorat qilyapti.

##### 2-dialog

Muloqot jarayoni: Hoshimjon o'zi va eng yaqin do'sti Qosimjonga yettita fandan a'lo baholar qo'yib chorak tugamagan bo'lsa ham cho'zib o'tiramanmi deb chorak baholarni qo'yib qo'yan ekan. Shu sababli direktor va o'qituvchilar Hoshimjon va Qosimjonni direktor kabinetiga chaqirib majlis qilishdi, shuningdek, direktor va o'qituvchilar Hoshimjonga shu ketishda ketaversa tuzukroq odam chiqmasligi, agronom ham ijiner ham zootexnik ham bo'la olmasligi haqida nasihat qilishdi:

-Yo'q, - dedim qaysarligim tutib, - mendan agronom chiqadi, albatta.

-Chiqmaydi! -sakkiztalovlari bir ovozdin takrorlashdi.

-Bo'lmasa zootexnik bo'laman.

-Ilmsiz bo'lsang, zootexnik tugul molbaqar ham bo'lolmaysan!

-Bo'la olaman.

-Gap ko'paytirma, bo'lolmaysan!- achchig'i chiqib dedi direktor.

-Bo'laman, bo'laman, bo'laman!-dedim-da, eshikni tarsillatib yopib chiqib kettim.

Ushbu dialogda direktor va o'qituvchilar o'quvchiga nasihat qilishgan va direktor "Ilmsiz bo'lsang, zootexnik tugul molbaqar ham bo'lolmaysan!" degan gapi orqali o'quvchini haqorat qilgan va shu bilan bir qatorda direktor va o'quvchi nutq vaziyatida kelisha olishmagan.

##### Tanqid qilish

B. Santosa va R. Mardianalarning fikriga ko'ra, tanqid qilish adresatning ijobiy yuziga zararlashi mumkin bo'lgan yuzga tahdid qiluvchi aktdir. [10]. Shuningdek, S.H. Hosseinzadeh va H. Rassaei Moqadamning tadqiqotiga ko'ra, tanqid bu shaxsga nisbatan unda mavjud deb qabul qilingan kamchiliklari yoki xatolariga asoslangan ma'qullamaslik ifodasidir [11].

##### 3-dialog

Muloqot jarayoni: Jismoniy tarbiya darsida o'quvchi uxlab qolgan va o'qituvchi uni tanqid qilgan.

Hatto bir kun maktabimiz hovlisidagi maydonchada, fizkultura mashqlari o'tkazadigan yog'ochning ustida og'zida noni bilan yog'ochga posangi bo'lgan uxlab qopti. O'qituvchimiz turtkilab:

-Uyat emasmi, yiqilib ketsang nima bo'ladi! - degan edi, Zokir ko'zini uqalab:

-Uxlaganim yo'q, o'zim shunday... dam olib yotuvdim, - deb qo'ya qoldi.

Ushbu dialogda o'qituvchi "uyat emasmi" degan jumlaning ishatish orqali dars jarayonida uxlab qolgan o'quvchini tanqid qilgan.

**Xulosa va takliflar.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sinfdagi muloqot jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan amalga oshiriladigan tanqid, ma'qullamaslik, ogohlantirish va haqorat kabi nutqiy harakatlar o'quvchilarning ijobiy "yuz"iga ta'sir qilishi mumkin. Shu bilan birga, bunday harakatlar ko'pincha pedagogik maqsadlar - intizomni saqlash, baholashni ifodalash va dars jarayonini tartibga solish - uchun qo'llaniladi. Ijobiy yuzga tahdid soluvchi harakatlarni tushunish va ularni pragmatik kontekstda tahlil qilish o'qituvchilarga o'quvchilar bilan samarali va ijobiy muloqot o'rnatishda yordam beradi. Natijalar o'zbek ta'limiy diskursining pragmatik xususiyatlarini aniqlashga, shuningdek, xushmuomalalik strategiyalari va yuzni boshqarish mexanizmlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu tadqiqot pedagogik amaliyotda yuzni boshqarish va ta'lim jarayonidagi muloqot sifatini oshirishga oid tavsiyalarni shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR

1. Bobojonova Sh. O'zbek va ingliz tillaridagi ta'limiy diskursning kognitiv-pragmatik tadqiqi: Filol. fan. bo'yicha falsafa dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Andijon,2023. - B. 19.
2. Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage.2nd ed. - Cambridge: Cambridge University Press.1987. - 345p.
3. Lambert, B. (2020). How to Avoid Embarrassment: Understanding Face-Threatening Acts - How Communication Works. How Communication Works. Retrieved from <https://rb.gy/sb8rw>
4. Andriyani, A., Djatmika, D., Sumarlam, S., & Rahayu, E. (2019). Learning from face-threatening acts by tourism workers in Bali: The impacts of cross-cultural misunderstanding. *Journal of Social Studies Education Research*, 10(3), 64-81. Retrieved from <https://www.learntechlib.org/p/216496/>.
5. Nurmatova M. Ingliz va o'zbek tillarida ijtimoiy yuz (face) hodisasini voqealantiruvchi vositalarning lingvopragmatik tadqiqi. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss.- Farg'ona, 2024.- 142b.
6. Aporbo, R.J., Barabag, J.M.C, Catig B.U., Christine Claveria C.M.P. (2024) Face-threatening and Face-saving Speech Acts of Teachers: A Discourse Analysis of Classroom Interactions. *World Journal of English Language*,14(3), 413-439. <https://doi.org/10.5430/wjel.v14n3p413>
7. Chen, I. J. (2017). Face-threatening Acts: Conflict between a teacher and students in EFL Classroom. *Open Journal of Modern Linguistics*, 7(2), 151-166. <https://doi.org/10.4236/ojml.2017.72012>
8. To'xtaboyev X. Sariq devni minib.Toshkent - Yangi Asr Avlodi. 2013. B - 240.
9. Gold, E., & McIntyre, D. (2019). What the/fak/? An acoustic-pragmatic analysis of implicated meaning in a scene from *The Wire*. *Pragmatics and literature*, 35, 73. <https://doi.org/10.1075/lal.35.04gol>
10. Santosa, B., & Mardiana, R. (2018). English Learner's Perspective on Culture and Silence in an EFL University Classroom. *International Journal of English Language Teaching*, 6(8), 18-24. Retrieved from <https://rb.gy/ygwxl>
11. Hosseinizadeh, S. H., & Rassaei Moqadam, H. (2019). Criticism strategies and their underlying cultural norms in online interactions: A study of native speakers of Persian and English. *Journal of International and Intercultural Communication*, 12(3), 267-287. <https://doi.org/10.1080/17513057.2018.1558273>